

BUDJET TASHKILOTLARIDA MAXSUS (ISH, XIZMAT) ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI XISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudayberdiyev Nizomiddin Qurbanqulovich

*Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 2 son politexnikumi
deriktori*

Annotatsiya: *Maqolada budget tashkilotlarida maxsus ish va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan. Amaldagi hisob tizimidagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, xarajatlar turlarini to‘g‘ri tasniflash, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali hisob yuritishning samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *budget tashkiloti, maxsus xizmat, xarajatlar hisobi, takomillashtirish, hisob siyosati, moliyaviy nazorat.*

Bozor munosabatlari sharoitida davlat sektoriga tegishli bo‘lgan budget tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini shaffof va samarali yuritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqla, budget tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan maxsus xizmatlar (masalan, o‘quv, ilmiy, tibbiy yoki texnik xizmatlar) uchun sarflanadigan xarajatlarni aniq va to‘g‘ri hisobga olish ushbu sohaning barqarorligini ta‘minlashda muhim omildir.

Maxsus ishlab chiqarish — bu budget tashkilotlari tomonidan o‘z faoliyat doirasida pullik asosda ko‘rsatiladigan ishlar va xizmatlar majmuasidir. Bunday xizmatlar budgetdan tashqari mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi va ularning daromadi tashkilot balansida alohida ko‘rsatiladi.

Budget tashkilotlarida maxsus ishlab chiqarishning asosiy maqsadlari quyidagicha:
Budgetdan ajratiladigan mablag‘larga qo‘sishimcha manba yaratish;

- Tashkilotning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- Mutaxassislarining bandligini ta‘minlash;
- Ilmiy-texnik salohiyatni tijoratlashtirish;
- Jamoa a’zolarining rag‘batlantirilishini oshirish.

Maxsus ishlab chiqarish faolligi quyidagi turdagি budget tashkilotlarida keng tarqalgan

Tashkilot turi

Universitetlar

Tibbiyot muassasalari

Maktablar, litseylar

Ilmiy institutlar

Davlat nashriyotlari

Maxsus ishlab chiqarish turi

Pullik kurslar, ilmiy xizmatlar, bosmaxona

Pullik tahlillar, maslahatlar

To‘garaklar, pullik repetitorlik xizmatlari

Buyurtma asosidagi tadqiqot ishlari

Kitob chop etish, dizayn xizmatlari

Budget tashkilotlarining maxsus ishlab chiqarish faoliyati quyidagi asosiy moliyaviy manbalar evaziga amalga oshiriladi:

- Jismoniy va yuridik shaxslarga pullik xizmatlar ko‘rsatish;
- Shartnomaviy asosdagi ilmiy-tadqiqot ishlari;
- Kurslar, treninglar, laboratoriya tahlillari;
- Grantlar va xalqaro loyihalar doirasidagi moliyalashtirish;

Ilmiy-tadqiqot muassasalari tushumi haqida quyidagicha bayon qilishimiz mumkin. Akademik institut sanoat korxonalari bilan shartnoma asosida tadqiqot o‘tkazadi (masalan, muayyan texnologik jarayonni tahlil qilish). Meteorologiya markazi biznes kompaniyalarga aniq ob-havo prognozlarini taqdim etadi. Geologiya instituti foydali qazilmalar bo‘yicha laborator tahlillarni pullik asosda bajaradi.

Qishloq xo‘jaligi va texnika yo‘nalishidagi o‘quv yurtlari budget tashkilotlarida maxsus ishlab chiqarish haqida ham to’xtalib o’tsak. Qishloq xo‘jaligi kolleji talabalar ishtirokida issiqxonada mahsulot yetishtirib, uni sotadi. Texnikum o‘quvchilari ishtirokida avtomobil remont ustaxonasini yo‘lga qo‘yadi. Veterinariya texnikumi hayvonlar uchun pullik emlash yoki davolash xizmatlarini ko‘rsatadi.

Tayyor mahsulot yoki axborot xizmatlaridan keladigan tushumlar. Bunday xizmatlar natijasida olingan mablag‘lar tashkilotning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisoblanadi va ular alohida moliyaviy hisobda yuritiladi.

Bu xizmatlardan tushgan pul va sarflangan mablag‘lar alohida hisobda yuritiladi. Har bir xizmat turi uchun qancha pul kelgani va qancha sarflangani buxgalteriya orqali ko‘rsatib boriladi. Keyin bu haqda yillik yoki oylik hisobotlar tayyorlanadi.

Tashkilot ichida va tashqaridan bu pul ishlari doimiy nazorat qilinadi:

- Tashkilotning o‘z buxgalterlari tekshiradi;
- Moliya vazirligi yoki Hisob palatasi tomonidan tashqi tekshiruvlar o‘tkaziladi;

Har bir xizmat bo‘yicha oldindan smeta (xarajat reja) tuziladi. Bu ishlar shaffof va qonuniy bo‘lishi kerak.

Xulosa: Maxsus ishlab chiqarish faoliyati budjet tashkilotlari uchun qo‘sishimcha daromad manbai bo‘lish bilan birga, ularning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi strategik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu faoliyat orqali tashkilotlar o‘z mablag‘larini mustaqil ravishda shakllantirish, moddiy-texnik bazasini yangilash, zamonaviy uskunalar xarid qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda xodimlarni rag‘batlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, maxsus ishlab chiqarish faoliyati davlat byudjetiga tushadigan moliyaviy bosimni kamaytiradi, tashkilotlar uchun innovatsion g‘oyalarni joriy etish va amaliyotga tatbiq qilish imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, budjet tashkilotlarining tashkiliy-moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Biroq ushbu faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarishda moliyaviy hisob-kitoblarning aniq, shaffof va hujjatlar bilan asoslangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlar yuritilishi, daromad va xarajatlarning to‘g‘ri tasniflanishi, ularni doimiy ravishda nazorat qilish tizimi mavjud bo‘lishi, maxsus ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, maxsus ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy jihatlarini yanada takomillashtirish, uni amaliyotda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va yuridik-me'yoriy asoslarini mustahkamlash har bir budjet tashkiloti oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev A. "Buxgalteriya hisobining nazariy va amaliy asoslari". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
2. Karimova G. "Budget tashkilotlarida moliyaviy boshqaruv". – Toshkent: Moliyachi, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. 2022-2024 yillar.
4. Kuznetsova I.G., "Buxgalterskiy uchet v byudzhetnyx organizatsiyax" – Moskva: Finansy i Statistika, 2019.
5. PWC Report: "Public Sector Accounting Reform", 2023.